UniScience
International scientific journal

QO‘QON XONLIGIDA MARKAZIY BOSHQARUVINING ICHKI VA TASHQI OMILLARI: MA’MURIY IDORASI VA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMI

Abduazimov Davronbek Baxtiyor o‘g‘li

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo‘qon xonligida markaziy boshqaruvning ichki va tashqi omillari, ma’muriy idorasi va mahalliy boshqaruv tizimining shakllanishi, sayqallanishi, tadrijiy rivojlanib boorish bosqichlari haqida ilmiylik, tarixiylik va xolislik asosida o‘rganilgan ma’lumotlar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon xonligi, xon, otaliq, beklarbegi, biy, devonbegi, xazinachi, inoq,eshikog’asi, chehraog’asi, parvonachi, dodxoh, dasturxonchi, saroy qorovulbegisi, tunqator, oftobachi, sharbatdor, hidoyatchi, shig’ovul, sarkor, qushbegi (mirishkor) , salomog’asi, kitobdor, risolachi , jam’og‘a, jarchi, chopquchi, shotir, udaychi*

Abstract: *This article contains information studied based on scientific, historical, and objective principles about the internal and external factors of central governance in the Khanate of Kokand, its administrative office, and the formation, refinement, and gradual development stages of the local governance system.*

Keywords: *Kokand Khanate, khan, ataliq, beklarbegi, biy, divanbegi, treasurer, inaq, eshikog‘asi, chehraog‘asi, parvonachi, dodkhah, dasturxonchi, palace guard commander, tunqator, oftobachi, sharbatdor, hidoyatchi, shig‘ovul, sarkor, qushbegi (mirishkor), salomog‘asi, kitabdar, risolachi, jam‘oqa, jarchi, chopquchi, shotir, udaychi*

Аннотация*: В этой статье представлены научно обоснованные, исторически достоверные и объективные данные о внутренних и внешних факторах центрального управления в Хокандском ханстве, его*

административных учреждениях и формировании, совершенствовании и постепенном развитии системы местного управления.

***Ключевые слова**: Ханство Коканд, хан, оталык, беклярбеги, бий, диванбеги, казначей, инак, эшикогази, чечраогази, парвоначи, додхох, дастурхончи, караульный дворца, тункатор, офтобачи, шарбатдор, хидоятчи, шигавул, саркор, кушбеги (миришкор), саломогази, книгохранитель, рисолачи, джамоа, жарчи, чопкучи, шотир, удайчи*

UniScience
International scientific journal

Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvida milliy davlatchilik asoslarini yaratish, demokratlashtirish borasida salmoqli ishlar olib borildi. Xususan, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati organlarini shakllantirish hamda ularning kelajagi bo‘yicha tarixiy tajriba asosida tizim shakllantirildi. Umuman olganda respublikamizda mahalliy hokimiyat tizimi munosabatlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, davlat boshqaruvining mexanizmi mahalliy hokimiyat organlari bilan uzviy bog‘liq va shu organlar orqali amalga oshiriladi.

Shunday ekan, tarixiy tajriba asosida O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davridagi davlatchilik tarixiga murojaat qiladigan bo‘lsak, o‘zbeklarning ming qabilasi (urug‘i) boshliqlaridan biri Shohruhbiy asos solgan Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o‘rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Zamonaviy tadqiqotlarda ham xonlikda Buxoro amirligida bo‘lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda shayboniylar davrida qisman isloh qilingan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo‘lganligi, xonlikda eng oliy va markaziy unvon xon unvoni bo‘lib, uning hukumati cheklanmaganligi ta’kidlab o‘tilgan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo‘lida edi[2]. XIX asr manbalarida Qo‘qon xonligi beklik, ba’zan viloyag va sarkorlik sifatida tilga olingan ma’muriy -

[2] Худойқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)). Монография. Ўзкитобсавдонашриёти. 2023. – Б. 76.

xududiy qismlarga bo‘lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo‘qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo‘qon va uning atrofi, Marg‘ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darxon[3]. “Turkestanskiye vedomosti” to‘plamida esa Asaka, Marg‘ilon, Baliqchi O‘sh, So‘x, Koson va O‘zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi[4].

Tarixchi olimlardan Sh.Vohidov, R.Xoliqovalar o‘z asarlarida Qo‘qon xonligining ming qabilasidan bo‘lgan hokimlar turli yillarda Shahrisabz, Urgut, Mog‘iyon, Urmitan viloyatlari va bekliklarida hukm surganlar. Ming urug‘i boshliqlari XIX asr boshlarigacha biy unvoni bilan hokimiyatni boshqarganliklarini, Olimxon 1805 yilda o‘zini rasman xon deb e’lon qilganligini ta’kidlab o‘tishadi. Xon unvoni bilan hokimiyatni boshqargan Umarxon (1810 – 1822 yy.) esa 1818 yilda o‘zini “amir ul-muslimin” deb e’lon qilgan. Shu asnoda 1822 yilda Muhammad Alixon ham xon unvoni bilan taxtga o‘tiradi[5].

Xonlikda xon avlodlari xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to‘ra deb atalar edi. Davlat boshqaruvi mutlaq yakka hokimlik bo‘lib, xonning o‘zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘lsa-da, ma’lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo‘shin boshliqlarining xonga ta’siri kuchli bo‘lgan. Bunga misol qilib Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo‘lgan davrini (Xudoyorxon davrida, 1844 – 1852 yy.) yoki Aliqulining amirlashkarlik va vazirlik davrini (Sulton Sayidxon, 1863 – 1865 yy.) keltirish mumkin. Bzning fikrimizcha, xonning siyosiy kuch-qudrati ma’lum iqtisodiy asoslarga hamda ba’zi ijtimoiy guruhlar faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan.

[3] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2012. – Б. 365.
[4] Туркестанские ведомости. 1876. – № 13.
[5] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2006. – Б. 6-21.

Manbalar va ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo‘lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo‘riq yerlar, ko‘lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to‘ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma’muriyat, qo‘shinlar va qo‘shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag‘batlantirilgan.

Xonlikda hokimlar va hududiy bo‘linma boshliqlari xon oilasi a’zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda yetakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o‘g‘illari va yaqin qarishdoshlari tomonidan boshqarilgan. O‘z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o‘zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo‘lib berganlar. Qo‘qon xonligining ma’muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy) va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko‘plab vakolatlarga ega bo‘lgan[6].

Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, xon saroyida mingboshi boshchilik qiladigan Kengash tuzilgan bo‘lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko‘rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a’zo bo‘lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edi[7].

Qo‘qon xonligida asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798 – 1842 yy.) davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosat ancha barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Ammo XIX asr o‘rtalariga kelib Qo‘qon xonligi inqirozga uchray boshlaydi. Tadqiqotchilar ushbu inqirozning asosiy sabablari sifatida o‘troq xalq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni, o‘zaro nizo va urushlarni, xon taxti uchun olib borilgan kurashlarni, Buxoro amiri bilan bo‘lgan nizolar va dushmanliklar, saroy amaldorlarining xoinliklari kabilarni

[6] Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. … – Б. 365.
[7] Ўша асар. – Б. 368.

ko‘rsatadilar. Bularning natijasida iqtisodiy hayotda taraqqiyot pasayib, ijtimoiy tarqoqlik kuchayib bordi va davlat inqirozga yuz tutdi[8].

Qo‘qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab harbiy, harbiy-ma’muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma’muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona amallariga bo‘lingan[9]. Qo‘qon xoligidagi saroy unvon va mansablari quyidagilar edi:

Otaliq – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiylari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o‘tirganidan so‘ng, otaliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallagan.

Beklarbegi – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba’zi viloyatlarning hokimiga berilgan.

Biy – turkiy qabilalarning boshliqlari.

Devonbegi – xon devonining boshlig‘i, Qo‘qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo‘lgan.

Xazinachi – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat yuritgan.

Inoq – xonning xos va sirdosh mulozimi.

Eshikog‘asi yoki chehraog‘asi – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig‘i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo‘ymaslikka javobgar shaxs.

Parvonachi – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroyga olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.

Dodxoh – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.

[8] Мирзо Олим Махдумхожа. Тарихи Туркистон. – Тошкент. Янги аср авлоди. Таржимон Ш.Воҳидов. 2008. – Б. 87.
[9] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент. Янги аср авлоди. 2006. – Б. 6-21;

Dasturxonchi – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi.

Saroy qorovulbegisi – xon o‘rtasining soqchilariga boshliq bo‘lgan saroy amaldori.

Tunqator – tun bo‘yi uyg‘oq bo‘ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo‘riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.

Oftobachi – xonning xos mulozimlaridan bo‘lib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.

Sharbatdor – eng oliy va faxriy unvonlardan bo‘lib, xonning xos majlislari va safarlarida hizmatda bo‘lgan.

Hidoyatchi – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovg‘alarni qabul qilib olib, xon nazaridan o‘tkazuvchi amaldor.

Shig‘ovul – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga ko‘ra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng bo‘lgan[10].

Sarkor – saroydagi xon amaldorlarining boshlig‘i. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.

Qushbegi (mirishkor) – ov paytida xonga hamrohlik qiladigan mansab egasi. Qushbegining ovchi itlari, lochin va burgutlari bo‘lib, ov paytidagi xonning dam olish jarayonlariga ham bu shaxs javobgar bo‘lgan.

Salomog‘asi – xon nomidan xalqqa salom beruvchi.

Kitobdor – saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor.

Risolachi – elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun mas’ul bo‘lgan saroy amaldori.

[10] Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент. Янги аср авлоди. 2006. – Б. 6-21.

Jam’og‘a – xonning suhbati, qabuli hamda bazmlariga ishtirok etuvchilarga xabar berib, chaqirib keladigan saroy amaldori.

Jarchi – xalq yig‘iladigan ommaviy joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib (baland ovoz bilan) e’lon qiladigan shaxs.

Chopquchi – pichoq yasovchi, xon saroyidagilar uchun qurollar (pichoq, xanjar, qilich) yasab, qurchi vazifasini ham bajargan.

Shotir – xon rikobi oldida yuradigan hizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta’zimga chorlab turgan.

Udaychi – xon rikobi oldida yurib, uning sha’niga baland ovoz bilan maqtovli so‘zlar va hamdu sanolar aytib boruvchi hizmatchi.

Tarixchi B.Tursunov o‘z monografiyasida Qo‘qon xonligi harbiy mansablar tizimida qo‘shinning turli bo‘linma larida muhim o‘rin tutgani, ma’suliyati jihatidan turlicha bo‘lgan mansab va lavozimlar mavjud ekanligin qayd etib o‘tadi. Ular jumlasiga yovar, xos soqchi, to‘pchiboshi, pon sadboshi, yuzboshi, ellikboshi, o‘nboshi, qorovulbegi, qozi askar, qozi muf tiy, qozi raislarni kiritish mumkin. Ular xonlik harbiy tizimida o‘zla riga yuklatilgan vazifalar jihatidan turli o‘rinlarni egallaganlar. Ulardan biri yovar bo‘lib, amirlashkar shaxsiy dastasining boshlig‘i, qurol yasovchi ustaxonalarning sardori sifatida ham e’tirof etiladi. Uning qo‘l ostidagi dasta odatda yuz kishidan iborat bo‘lgan. Ba’zi adabiyotlarda yovar Qo‘qon xonligidagi yuz kishilik to‘pchilar bo‘linmasining boshlig‘i sifatida ko‘rsatiladi[11].

Yuqoridagi amal va mansab egalari o‘z xizmatlari evaziga yillik maosh (pul, ot, qo‘y, g‘alla ko‘rinishida) olganlar. Bundan tashqari, ularga tegishli yer-mulklar ham berilgan. Davlat o‘zining ichki va tashqi siyosati, jamiyat bilan olib boruvchi aloqalarini asrlar davomida shakllanib, mukammallashib borgan murakkab boshqaruv organiga tayanib amalga oshirgan. Bu organ Markaziy Osiyo xonliklarida

[11] Турсунов Б. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари XIX асрнинг 70 йилларигача. – Наманган. Наманган нашриёти. 2014. – Б. 72.

hukmdorlarning huzuridagi Oliy kengash bo‘lib, tarixiy manbalarda u “maslahat”, “xos majlis”, “mashvarat”, “majlisi sultoniy” kabi so‘zlar bilan ifoda qilinadi[12].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Худойқулов Т.** Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)): монография. — Тошкент: Ўзкитобсавдонашриёти, 2023. — 200 б.
2. **Эшов Б.** Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. — 365 б.
3. **Туркестанские ведомости.** — 1876. — № 13.
4. **Воҳидов Ш., Холиқова Р.** Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. — Б. 6–21.
5. **Мирзо Олим Махдумхожа.** Тарихи Туркистон. Тарж. Ш. Воҳидов. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. — 87 б.
6. **Қўлдашев Шерали.** Қўқон хонлиги ва Хитой (Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик муносабатлар. — Тошкент: ТошДШИ, 2019. — 240 б.
7. **Турсунов Б.** Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари XIX асрнинг 70 йилларигача. — Наманган: Наманган нашриёти, 2014. — 127 б.
8. **Худойқулов Т. Д., Бердиев А. А.** The Role of Memories of Tourists and Ambassadors in Trade and Economic Relations of the Kokand Khanate // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. — 2020 (India). — P. 324–333.

[12] Худойқулов Т. Марказий Осиё давлатларининг бошқарув тарихи (марказий, маҳаллий, ҳарбий, диний ҳокимият (XVIII – XX аср бошлари)). Монография. Ўзкитобсавдонашриёти. 2023. – Б. 76-85.

UniScience International scientific journal